

“MA’QULLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2023-yil “2” avgust dagi
1051-sonli qarori bilan

Boshqaruv raisi



O. Butayev



“TASDIQLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Kuzatuv kengashi majlisining
2023-yil “2” dekabr dagi
40-sonli bayonnomasi bilan

Kuzatuv kengashi raisi



O. Isakov



**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida
Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va tartibga solish to‘g‘risidagi
Nizom**

Toshkent – 2023 yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankida Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va tartibga solish to'g'risidagi Nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom), korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasidagi xalqaro tashkilotlar va yetakchi jahon amaliyotlarining tavsiyalarini hisobga olgan holda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi va "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoni va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa me'yoriy hujjatlar hamda "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining (keyingi o'rinlarda – Bank) ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, oldini olish, aniqlash va baholash, tartibga solish va hal etishning umumiy tamoyillari, yondashuvlari va asosiy chora-tadbirlarini belgilaydi, shuningdek manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda odob-ahloq qoidalari va boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

affillangan shaxslar – affillangan shaxslar deganda yuridik ahamiyatga molik harakatlar yoki har qanday fuqarolik-huquqiy munosabatlar asosida Bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;

yaqin qarindoshlar – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er(xotin), farzandlari, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek eri(xotini)ning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-ukalari va opa-singillari;

Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti (keyingi o'rinlarda – KQND) – Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklatilgan tarkibiy tuzilma;

manfaatdor shaxslar – xodimlar, shu jumladan Bankning mansabdor shaxslari va boshqaruv organlari a'zolari, ularning yaqin qarindoshlari, mijozlar, kontragentlar, davlat boshqaruvi organlari a'zolari va boshqalarning Bankning manfaatlariga zid harakatlar amalga oshirishi yoki qonuniy talablarga rioya qilmasligi oqibatida Bankning barqaror faoliyat yuritishiga yoki har qanday boshqa holatlarda Bank va ularning manfaatlari to'qnashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslar;

xavf – manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlangan taqdirda Bankda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf;

mijoz – pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risida Bankka topshiriqnoma (ariza, iltimosnoma) bilan murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

kontragent – Bankning xarid qilish jarayoni doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki

nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

xodim – Bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

shaxsiy manfaatdorlik – xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki unga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lganda hamda fuqarolarning, Bankning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgandagi vaziyat;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish – manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, aniqlash va baholash, tartibga solish va hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

axborot to'sig'i – maxfiy yoki cheklangan (shu jumladan, tijorat, xizmat, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar) axborotni uzatish va tarqatish imkoniyatini jismoniy cheklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

insayderlik axboroti – oshkor qilinmagan yoki taqdim etilmagan (shu jumladan tijorat, xizmat, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar), uning oshkor qilinishi yoki taqdim etilishi Bankning biznes jarayonlariga va moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muayyan ma'lumot.

2-bob. Nizomning maqsadi va asosiy vazifalari

4. Mazkur Nizomning maqsadi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, oldini olish, aniqlash va baholash, tartibga solish va hal etishning mexanizmlarini belgilash, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda uning oqibatlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni va xodimlarning odob-ahloq qoidalarini mustahkamlashdan iborat.

5. Mazkur Nizomning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

mijozlar va kontragentlarning Bankka ishonchni oshirish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida hamda korporativ boshqaruvning yuqori standartlariga rioya qilgan holda, mijozlarga adolatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash;

Bank faoliyatini xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarga muvofiqligini ta'minlash hamda Bankning ishbilarmonlik obro'sini oshirish;

manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish tamoyillarini, boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlarini va xodimlarning odob-axloq qoidalarini belgilash;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, oldini olish, aniqlash va baholash, tartibga solish va hal etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida umumiy ma'lumotlarni xodimlarga berish hamda manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishning eng yaxshi usullarini aniqlashda yordam berish;

rioya qilishi shart bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, oldini olishning eng ilg'or usullarini belgilash.

3-bob. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning asosiy tamoyillari, xavflar va manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelish sabablari

6. Manfaatlar to'qnashuvini noto'g'ri boshqarish natijasida Bank quyidagi xavflarga duch kelishi mumkin:

amaldagi qonunchilik va nazorat qiluvchi tashkilotlar talablariga rioya qilmaslik xavfi;

ishbilarmonlik obro'sini yo'qotish xavfi;

Bankning faoliyatiga zarar yetkazish xavfi.

7. Manfaatlar to'qnashuvini yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin, lekin bu bilan cheklanib qolinmaydi:

xodim qonunchilik va ichki hujjatlar talablarini buzganida;

xodim ishbilarmonlik va odob-axloq qoidalari hamda kasbiy etika tamoyillariga rioya qilmaganda;

xodim va uning oila a'zolari Bank bilan tijorat faoliyatini amalga oshirganda;

Bank bilan ishbilarmonlik aloqalari mavjud bo'lgan kompaniyalarda xodimning moliyaviy manfaatdorligi mavjud bo'lganda;

xodim boshqa tashkilotda o'rindoshlik asosidagi mehnat faoliyatini amalga oshirganda yoki boshqa tashkilotning boshqaruv organlarida ishtirok etganda.

8. Manfaatlar to'qnashuviga nisbatan tegishli choralarni o'z vaqtida ko'rilmaslgi, xodimlar va boshqa shaxslar, shuningdek mijozlar, aksiyadorlar, kontragentlar, davlat organlari va qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari oldida Bank uchun xavf tug'diradi.

9. Bank manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning quyidagi tamoyillariga amal qiladi:

barcha mijozlari bilan va (yoki) ularning nomidan va (yoki) ularning topshirig'iga ko'ra bitim tuzishda ularga nisbatan teng va adolatli munosabatni ta'minlaydi;

manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, aniqlash va baholash, tartibga solish va hal etishga intiladi;

mavjud va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotni oshkor qiladi;

manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish jarayonida olingan maxfiy ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlaydi;

barcha xodimlar, egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, oldini olish, aniqlash va baholash, tartibga solish va hal etish jarayonida ishtirok etishini ta'minlaydi;

xavflarni adolatli va mustaqil baholashni amalga oshiradi;

manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish maqsadida qaror qabul qilish vakolatlarini aniq belgilaydi, xodimlar o'zlarining lavozim vakolatlari va

imkoniyatlaridan faqatgina Bank manfaatlari yo'lida foydalanishga majburlar. Manfaatlari to'qnashuviga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan manfaatdor shaxslarni manfaatlar to'qnashuvini hal qilinishida ishtirok etmasligini ta'minlaydi;

xodim tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotni o'z vaqtida oshkor etilgani va tegishli choralari ko'rilganligi munosabati bilan manfaatlar to'qnashuvi ijobiy hal bo'lganida, xodimga nisbatan jazo choralari ko'rilmasligi va ta'qib qilinmasligini ta'minlaydi;

manfaatlar to'qnashuvi xavfini minimallashtirish uchun yetarli bo'lgan ichki hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

xodimlar bilan manfaatlar to'qnashuvi sohasida o'quv tadbirlarini o'tkazadi hamda qoida va tushunchalarni bilish darajasini tekshiradi;

mijozlarning qimmatli qog'ozlari va mablag'larini Bankning o'z aktivlaridan alohida saqlanishini ta'minlaydi;

nazorat qiluvchi va boshqa idoralar bilan shaffof hamkorlik qiladi.

10. Xodim mijozlar, kontragentlar va Bank manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishga majbur.

11. Bankda Personalni boshqarish departamenti (keyingi o'rinlarda - PBD) manfaatlar to'qnashuvini tartib solish va unga oid boshqa faoliyatga ma'sul hisoblanadi. PBD O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining (keyingi o'rinlarda - Agentlik) namunasi asosida manfaatlar to'qnashuvi holatlarining hisobga olish reyestrini yuritadi va unga kiritilgan ma'lumotlarning to'liq va ishonchiligi javobgar hisoblanadi. Agentlik tomonidan belgilangan hisobot davrida PBD reyestrni o'rnatilgan tartibda to'ldirib, tekshirish uchun Agentlikka yuboradi.

PBD har yili Agentlikning manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi namunaviy deklaratsiyasini xodimlar tomonidan to'ldirishda ma'sul hisoblanadi (2-ilova)

12. Xodimga mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumot ma'lum bo'lganda darhol o'zining bevosita boshlig'iga og'zaki ravishda xabar beradi va tegishli shaklni ikki nusxada to'ldirib PBD va KQND ga yuboradi (3-ilova).

13. Xodimlar manfaatlar to'qnashuvi haqida KQNDning aloqa kanallari orqali ham xabar berishi mumkin va KQND kelib tushgan xabarlarni tegishli reyestrda qayd etadi (1-ilova).

Bank bo'linmalari rahbarlari aloqa kanallari orqali ma'lum qilingan manfaatlar to'qnashuvini hal etilishga shaxsan javobgar hisoblanadi, PBD va KQND manfaatlar to'qnashuvini hal etilish jarayonini nazoratga oladi va natijasi yuzasidan Bank rahbariyatiga hisobot beradi.

14. Xodim unga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining holati yoki bevosita manfaatlar to'qnashuviga duch kelganligini yashirganligi aniqlansa intizomiy javobgarlikka tortiladi, shuningdek xodim manfaatlar to'qnashuvi oqibatida Bankka yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplaydi.

15. Bank rahbariyati o'z vakolatlari doirasida va qonunchilikda belgilangan tartibda xodimlarning manfaatlarini hurmat qiladi va himoya qiladi.

4-bob. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish

16. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ish samaradorligini oshirish, shuningdek Bank Boshqaruvi va xodimlarning harakatlarini muvofiqlashtirish maqsadida, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va oldini olish – manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish;

manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va baholash – manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni doimiy monitoring qilish va baholash;

manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish va hal etish – manfaatlar to'qnashuvini to'liq va tezkor hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish.

17. Bankning barcha tarkibiy bo'linmalari manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni doimiy ravishda mustaqil monitoring qiladi va mustaqil baholaydi hamda har chorakda qayd etilgan manfaatlar to'qnashuvi holatlari to'g'risida PBD va KQNDga yozma ravishda axborot taqdim qilishi shart.

18. Bank Boshqaruvi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish maqsadida, KQNDning taklifiga binoan, xodimlardan qo'shimcha qoidalarga rioya qilishni talab qilishi mumkin.

1-§ *Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish choralari*

19. Xodimlar qonunchilik, Bank Ustavi, ichki hujjatlar va lavozim yo'riqnomalarida belgilangan tartiblarga qat'iy rioya qilishlari shart.

20. Bankning tashkiliy tuzilmasini yaratishda bo'linmalarning ma'suliyati, mustaqilligi va vakolatlari aniq belgilab beriladi.

Bankning ichki hujjatlarida muayyan bo'linmaning majburiyat va huquqlarini taqsimlash, qarorlarni muvofiqlashtirish va shtat o'zgarishi natijasida vakolatlarni topshirishning batafsil tavsifi ishlab chiqilishi va Bankning tegishli hujjatlarida aks ettirilishi lozim.

21. Bank Boshqaruvi Bankda ko'p bosqichli ichki nazorat tizimini joriy etilishini ta'minlashi shart.

22. Bank Boshqaruvi ichki hujjatlarda manfaatlar to'qnashuvi omillarini aniqlash va ularni hujjatlardan chiqarib tashlash uchun yuridik departament tomonidan huquqiy va korrupsiyaviy ekspertiza otkazilishini ta'minlaydi.

23. Bankda maxfiy va insayderlik ma'lumotlaridan foydalanishda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishini oldini olish maqsadida, ma'lumotlar aylanishini nazorat qiladi va axborot to'siqlarini o'rnatadi.

Xodimlar maxfiy ma'lumotlardan Bankning ichki hujjatlari va kontragentlar oldidagi maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish majburiyatlariga muvofiq foydalanishlari shart.

Barcha maxfiy ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladigan majburiyatlar insayderlik ma'lumotlaridan foydalanishga nisbatan ham qo'llaniladi.

24. Axborotini himoya qilish va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun Bank quyidagi usullardan foydalanadi:

jismoniy va axborot texnologiyalari xavfsizligini ta'minlagan holda, Bank xonalari va binolari ichida ma'lumotlarning harakatlanishi va uzatilishini cheklash;

parollar (kod so'zlari) yoki maxfiy ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslarni identifikatsiyalashning boshqa vositalaridan foydalanish;

maxfiy ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan xodimlar ustidan tegishli nazoratni ta'minlash;

xodim bilan tuziladigan mehnat shartnomasiga Bankning maxfiy ma'lumotlarini oshkor etmaslik bo'yicha majburiyatlarini kiritish.

25. Bank xodimlari va Boshqaruvi a'zolariga ularning xizmat vazifalari bilan bog'liq bo'lgan va manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltiradigan uchinchi shaxslardan pul mablag'lari, sovg'a/hadyalar, mehmondo'stlik belgilarini qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sovg'a/hadyalarni va mehmondo'stlik belgilarini qabul qilish yoki taqdim etishga oid istisnalar "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining sovg'alar, mehmondo'stlik belgilari, xayriya faoliyati va homiylik to'g'risida siyosatida belgilangan.

26. Xodim mehnat vazifalarini bajarish doirasida Bankning har qanday bitimlaridan shaxsiy foyda olishga haqli emas.

Xodimlarga qonunchilik, Bank tomonidan belgilangan ichki tartib va cheklovlarni buzgan holda, shaxsiy manfaatlarni ko'zlab moliyaviy vositalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish taqiqlanadi.

Bank moliya bozorida suiiste'molliklarning oldini olish maqsadida xodimlarning mazkur sohadagi operatsiyalari ustidan nazoratni, shuningdek quyidagi qoidalar va cheklovlarni o'rnatishi mumkin:

xodimlar oqillikka rioya qilishlari va Bank obro'siga putur yetkazadigan yoki manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradigan shaxsiy investitsiyalardan, shu jumladan o'z mehnat majburiyatlariga zarar yetkazadigan shaxsiy operatsiyalardan saqlanishlari kerak;

Bank obro'siga putur yetkazilishi yoki manfaatlar to'qnashuvini kelib chiqmasligi uchun xodimlar qonunchilikni, Bank tomonidan belgilangan ichki tartib va cheklovlarni buzgan holda shaxsiy investitsiyalardan, shu jumladan o'z mehnat majburiyatlariga zarar yetkazadigan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishdan saqlanishlari kerak.

27. Egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar Bankning barcha xodimlari quyidagi ma'lumotlarni oshkor qilish orqali manfaatlar to'qnashuvi xavfini minimallashtirish va boshqarishda ishtirok etishi shart, shu jumladan:

Bank bilan mehnat shartnomasi tuzgandan keyin Bank yoki uning afillangan shaxslari, xodimlari, mijozlari va kontragentlari bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi ma'lum bo'lsa, bu haqida 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay og'zaki yoki elektron hujjat aylanmasi dasturi orqali bevosita rahbariga yoki PBD va KQNDga ma'lum qilish;

xizmat vazifalarini bajarish jarayonida manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyat yuzaga kelsa, og'zaki yoki elektron hujjat aylanmasi dasturi orqali bevosita rahbariga yoki PBD va KQNDga 1 (bir) ish kunidan kechiktirmay ma'lum qilish.

28. Bank xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilinishi, ularni manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish uchun samarali tashkiliy va ma'muriy choralar ko'rish majburiyatidan ozod etmaydi. Xodimlar yuzaga kelgan yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini hal qilish uchun Bankning ichki hujjatlariga muvofiq takliflar kiritishi va uni hal qilishda ishtirok etishi shart.

29. Mijoz bilan bitim tuzishdan oldin u bilan bog'liq mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa yoki olinsa, Bank tomonidan uni tartibga solish va hal etish bo'yicha ko'rilgan choralar oldini olishga imkon bermasa, bu haqida mijozga oshkor qilishi shart.

2-§ *Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va baholash*

30. Barcha xodimlar egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar manfaatlar to'qnashuvini Bank faoliyatining barcha jarayonlarida aniqlashi shart.

Yangi mahsulotlar va biznes jarayonlarni Bank faoliyatiga joriy qilishdan oldin manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar inobatga olinganligi to'grisida KQND, Ichki audit departamenti, Ichki nazorat va sanksiyaviy komplaens departamenti, Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti va Bankning boshqa tegishli tarkibiy tuzilmalarining hulosalari olinishi shart.

31. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini aniqlash PBD, KQND, Ichki audit departamenti, Ichki nazorat va sanksiyaviy komplaens departamenti, Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti va Bankning boshqa tegishli tarkibiy tuzilmalari ishtirokida o'tkaziladigan tekshirishlar davomida ham amalga oshiriladi.

32. Bank xodimlari har qanday huquqbuzarlik holatlari, shu jumladan shaxsiy manfaatdorlik maqsadida xizmat vazifalarini suiiste'mol qilinishi, manfaatlar to'qnashuvi yashirilishi yoki hal qilmaslik va shu kabi holatlar to'g'risida xabar berishlari uchun Bankning elektron hujjatlar aylanmasi dasturida tegishli ilova hamda xavfsiz/ishonchli aloqa kanallari yo'lga qo'yilgan.

33. Mazkur Nizom talablari va aloqa kanallari orqali kelib tushgan ma'lumotlar KQND tomonidan tekshiriladi va PBD bilan birgalikda manfaatlar to'qnashuvini hal etishning eng maqbul shaklini tanlaydi.

3-§ *Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish*

34. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish maqsadida Bank uni tartibga solishning quyidagi mexanizmlarini qo'llaydi:

amaldagi qonunchilik va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tartiblarda va shartlarda xodimning xizmat vazifalarini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish;

amaldagi qonunchilik va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tartiblarda va shartlarda, xodimni manfaatlar to'qnashuvi mavzusiga aloqador bo'lmagan lavozimga o'tkazish;

xodim tomonidan manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltiruvchi shaxsiy manfaatlaridan voz kechishi;

agar manfaatlar to'qnashuvini yuqoridagi va boshqa yo'llar bilan tartibga solish imkoni bo'lmasa, bitim tuzish va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish;

xodimni shaxsiy manfaatlariga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan ma'lumotlarni olishini cheklash;

xodimning qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishidan yoki manfaatlar to'qnashuvi subyektiga boshqacha ta'sir ko'rsatishidan ixtiyoriy ravishda bosh tortishi yoki uning (doimiy yoki vaqtinchalik) bo'yin tovlashi;

xodim tomonidan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan o'ziga tegishli qimmatli qog'ozlarni ishonchli boshqaruvga topshirishi;

xodimni uning tashabbusi bilan ishdan bo'shatish;

xodimni ish beruvchining tashabbusi bilan ishdan bo'shatish (ichki hujjatlar va xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'ziga yuklangan lavozim majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli intizomiy huquqbuzarlik sodir etganda);

manfaatlar to'qnashuvini hal etishga erishish mumkin bo'lgan boshqa shakllari.

35. Bankning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha oqilona choralarni ko'rishlari shart. Xodim yoki uning rahbari manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi, xavfini va oqibatlarini minimallashtirish choralaridan shubhalanayotgan bo'lsa KQNDga murojaat qilishi lozim.

36. Agar manfaatlar to'qnashuvini hal etishning imkoni bo'lmasa, mazkur Nizomning 6-bandida ko'rsatilgan xatarlar yuzaga kelishini oldini olish maqsadida Bank bo'linmalari rahbarlari ma'lum bir operatsiyani bajarishni yoki muayyan mijozga xizmat ko'rsatishni rad etishi mumkin.

5-bob. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish jarayoni ishtirokchilarining vakolatlari va vazifalari

37. Bankning Kuzatuv kengashi:

mazkur Nizomni tasdiqlaydi;

manfaatlar to'qnashuviga oid qonunchilik, mazkur Nizom va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki hujjatlarning talablariga rioya etadi;

Bankning samarali boshqaruvini ta'minlaydi, manfaatlar to'qnashuvini boshqarishga oid faoliyat va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ustidan umumiy nazoratni o'rnatadi.

38. Bank Boshqaruvi:

manfaatlar to'qnashuvini boshqarishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqish orqali Bank faoliyatining amaldagi qonunchilikka muvofiqligini va qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlaydi;

Bankni samarali boshqarishni ta'minlaydi, mazkur Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qiladi;

manfaatlar to'qnashuviga oid ma'lumotlarni oshkor qilishini tartibini belgilaydi va ijrosini ta'minlanishini nazorat qiladi hamda xodimlar tomonidan maxfiy ma'lumotlarni shaxsiy manfaatlarda foydalanishini oldini oladi;

Bank bo'linmalari tomonidan affillangan shaxslar bilan yirik moliyaviy bitim va shartnomalar tuzishni monitoringini ta'minlaydi va shartlarining bajarilishini nazorat qiladi hamda rejalashtirilayotgan yirik moliyaviy bitim va shartnomalar to'g'risida Bank Kuzatuv kengashini xabardor qiladi;

Bank Boshqaruvi ishida KQND vakillarining ishtiroki zarurligini belgilaydi.

39. KQND:

Bank xodimlarining mazkur Nizomga rioya etishini nazorat qiladi;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, oldini olish, aniqlash va baholash, tartibga solish va hal etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

Bankning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tizimini tanqidiy tahlil qilish va takomillashtirishda ishtirok etadi;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarishga oid masalalar bo'yicha o'rnatilgan tartibda qarorlar qabul qiladi;

manfaatlar to'qnashuvini hal etilishini nazorat qiladi va natijasi yuzasidan Bank Boshqaruviga hisobot beradi;

manfaatlar to'qnashuvi haqida habar bergan xodimlarning va fuqarolarning shaxsi sir saqlanishini ta'minlaydi, ularni rag'batlantirish bo'yicha Bank Boshqaruviga taqdimnomalar kiritadi;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning yagona uslubiyotini ishlab chiqishda ishtirok etadi hamda Bank tizimida yondashuvlarning bir xilligini nazorat qiladi va qo'llab-quvvatlaydi;

Yuridik departament bilan birgalikda ishlab chiqilgan ichki hujjatlar va shartnomalarni tasdiqlash bosqichida manfaatlar to'qnashuvi xavfi yuzaga kelishi ehtimoli nuqtai nazaridan tekshirish o'tkazishda ishtirok etadi;

xodimlarning huquqiy ongini oshirish va huquqiy madaniyatini shakllantirish hamda mazkur Nizom va Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa hujjatlari talablarini tushuntirish maqsadida, manfaatlar to'qnashuvi sohasida seminar-treninglar va boshqa profilaktik-tushuntirish tadbirlarini tashkillashtiradi, o'quv materiallarini tayyorlaydi, maslahatlar beradi;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, oldini olish, aniqlash va baholash, tartibga solish va hal etish yuzasidan xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi, shuningdek tekshiruvlarni amalga oshirish uchun Ichki audit departamenti, Ichki nazorat va sanksiyaviy komplaeyns departamenti, Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti va Bankning boshqa bo'linmalari xodimlarini jalb qilishi mumkin;

Bank Boshqaruvi qarori yoki ko'rsatmasiga asosan manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan, olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar yoki harakatlar to'g'risida tegishli departamentlarni xabardor qiladi;

manfaatlar to'qnashuvi oqibatida aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha qonunchilik va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan vakolat doirasida o'zaro hamkorlik qiladi;

aloqa kanallari orqali manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida kelib tushgan habarlar hisobini yuritadi;

40. Ichki audit departamenti:

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, oldini olish, aniqlash va baholash, tartibga solish va hal etish yuzasidan xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

Bankning tarkibiy bo'linmalarini audit tekshiruvidan o'tkazish davomida mazkur Nizomning talablaridan foydalanadi;

Bankning tarkibiy bo'linmalarini audit tekshiruvi davomida manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelish darajasini pasaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari natijalarini samaradorligini va ishonchliligini nazorat qiladi;

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelish havfini boshqarish, oldini olish va boshqa chora-tadbirlar bo'yicha Bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning tarkibiy bo'linmalar faoliyatiga muvofiqligi yuzasidan audit tekshiruvi natijalariga ko'ra xulosalar beradi;

manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan/olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar va xodimlarning harakatlari yuzasidan KQND bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

manfaatlar to'qnashuvi oqibatida aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha qonunchilik va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

40. Ichki nazorat va sanksiyaviy komplaeyns departamenti, Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamentlari:

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, oldini olish, aniqlash va baholash, tartibga solish va hal etish yuzasidan xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan/olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar va xodimlarning harakatlari yuzasidan KQND bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

manfaatlar to'qnashuvi oqibatida aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha qonunchilik va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

42. Bankning tarkibiy va hududiy bo'linmalari (filiallar, amaliyot bo'shqarmalari, bank xizmatlarini ko'rsatish markazlari/ofislari va h.k.) rahbarlari:

vijdonli xulq-atvor namunasi bo'lgan holda, qo'l ostidagi xodimlar tomonidan mazkur Nizom va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki hujjatlar, shuningdek Korporativ odob-ahloq kodeksi talablariga rioya etilishini ta'minlaydi;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, oldini olish, aniqlash va baholash, tartibga solish va hal etish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shuningdek ushbu Nizom doirasida KQND bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

xodimlarni mazkur Nizom va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki hujjatlar bilan tanishib chiqqanligini hujjatlarni imzolatish orqali tasdiqlashini ta'minlaydi; xodimlarni mukofotlash va rag'batlantirish masalarini ko'rib chiqish jarayonida ularning shaxsiy samaradorligi bilan bir qatorda mazkur Nizom talablariga rioya etishini hisobga oladi.

43. Lavozimidan qat'iy nazar, barcha xodimlar:

odob-axloq qoidalari, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish sohasidagi qonun hujjatlari, mazkur Nizom va boshqa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ichki hujjatlar talablariga rioya qiladi;

Bank va uning mijozlarining manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yadi hamda Bank va uning mijozlari huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishini oldini oladi;

manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlaydi va mazkur Nizom talablariga muvofiq KQND bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

KQNDni majburiy baholash o'tkazishi uchun har qanday manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni va manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni o'z vaqtida oshkor qiladi (4-ilova);

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish choralari ko'radi;

mijoz tomonidan shaxsiy maqsadlarda xatoliklarga, shu jumladan ariza, bitim va mijoz tomonidan imzolangan boshqa hujjatlardagi xatolarga yo'l qo'ymaslik choralarni ko'radi (bunday xatolik aniqlangan taqdirda, ular bunday hujjatning ijro etilishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishi va bu haqda mijozni xabardor qilishi shart);

Bank bilan moliyaviy yoki boshqa har qanday faoliyatni amalga oshirayotgan yoki amalga oshirishni rejalashtirayotgan tashkilotlarda Bank xodimi moliyaviy manfaatlarga ega bo'lsa yoki shunday niyatda bo'lsa, bu to'g'risida 1 (bir) ish kuni ichida bevosita rahbariga xabar beradi va Bankning elektron hujjatlar aylanmasidagi ilovani to'ldiradi;

xodim yoki uning oila a'zolari Bankning yirik moliyaviy manfaatlarga ega yoki affillangan shaxslari bo'lgan tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi har qanday faoliyatdan voz kechadi;

Bankning manfaatlariga ziyon etkazmaydigan yoki Bank bilan aloqador bo'lmagan davlat, xususiy va boshqa tashkilotlarga o'rindoshlik asosida ishga joylashishdan oldin Bank boshqaruvidan ruhsat oladi;

xodim xizmat majburiyatlarini bajarayotganda yoki dunyoning istalgan davlatida Bank nomidan faoliyatni amalga oshirayotganda mazkur davlatning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish sohasidagi qonunchiligi va xalqaro huquq normalariga, shuningdek mazkur Nizom va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki hujjatlar talablariga amal qiladi;

manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni amalga oshirish va qarorlar qabul qilishdan tiyladi;

manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishda yordam ko'rsatadi;

maxfiy va insayderlik axborot bilan ishlash qoidalariga rioya qiladi;

agar mazkur Nizomda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish imkoniyati yoki boshqa masalalar bo'yicha shubha tug'ilsa, bevosita rahbariga yoki KQNDga tushuntirib berish uchun murojaat qiladi.

6-bob. Bank va uning xodimlarining javobgarligi

44. Barcha xodimlar, egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar, mazkur Nizom talablariga rioya etilishi uchun shaxsan javobgardir.

45. Xodimlar tomonidan sodir etilgan va manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan huquqbuzarliklar uchun Bankka nisbatan jazo choralari qo'llanilishi mumkin, shu sababli har bir aniqlangan holat bo'yicha amaldagi qonunchilikka rioya etgan holda xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

46. Xizmat tekshiruvi natijasiga ko'ra mazkur Nizom va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish sohasidagi boshqa ichki hujjat talablarini buzganlikda aybdor deb topilgan xodimlar intizomiy jazoga tortilishi yoki ishdan bo'shatilishi,

shuningdek qonunchilikka muvofiq ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

7-bob. Yakuniy qoidalar

47. Mazkur Nizom Bank Boshqaruvining 2023-yil 2-avgustdagi 105-1-sonli qarori bilan ma'qullangan. Mazkur Nizom Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

48. Mazkur Nizomga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

49. Mazkur Nizom shartlari buzilgan taqdirda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

50. Mazkur Nizomda ko'rsatib o'tilmagan tamoyillar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.


51. Mazkur Nizomda belgilangan tartibda Bankning har bir xodimi e'tiboriga yetkazilishi shart.

52. Mazkur Nizom bilan tanishish ustidan nazorat bevosita Bankning tarkibiy bo'linmalari va hududiy bo'linmalar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

53. Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Nizomda keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli Nizom qoidalari ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

54. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining o'zgarishi natijasida, ushbu Nizomning ayrim bandlari unga zid bo'lib yoki haqiqiy bo'lmay qolsa, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

55. Mazkur Nizom Mazkur Siyosat kuchga kirgan kundan boshlab, 2020-yil 30-noyabrdagi 87-2-sonli Boshqaruv qarori bilan tasdiqlangan "Komplaens-nazorat"-korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi to'g'risi"da Nizom va 2020-yil 6-noyabrdagi 83-2-sonli Boshqaruv qarori bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki xodimlarining manfaatlari to'qnashuvini boshqarish tartibi to'g'risidagi Nizom o'z kuchini yo'qotadi.



“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat bankida
Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish
va tartibga solish to‘g‘risidagi
Nizomga misol

**Manfaatlar to‘qnashuvining namunalari va tartibga solishning
mumkin bo‘lgan usullari**

1-misol: Bank kreditini berish to‘g‘risida qaror qabul qiluvchi Bank xodimi, to‘lov qobiliyatini tasdiqlovchi hujjatlar yo‘qligiga qaramay, o‘zining do‘sti, qarindoshi yoki shaxsiy manfaati bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsga nisbatan ijobiy qaror qabul qiladi.

Mumkin bo‘lgan tartibga solish usullari: - xodimni manfaatlar to‘qnashuvi mavzusi bo‘lgan qaror qabul qilishdan chetlashtirish.

2-misol: Rahbar o‘z qo‘l ostidagi, bir vaqtning o‘zida o‘zi bilan qarindoshlik munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan xodimiga nisbatan ish haqini oshirish yoki mukofot pulini to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Mumkin bo‘lgan tartibga solish usullari: - rahbarni manfaatlar to‘qnashuvi predmeti bo‘lgan qaror qabul qilishdan chetlashtirish; - xodimni (uning bo‘ysunuvchisini) boshqa lavozimga o‘tkazish yoki uning lavozim majburiyatlari doirasini o‘zgartirish.

3-misol: Materiallarni xarid qilish uchun mas‘ul bo‘lgan bank xodimi cheklangan miqdordagi yetkazib beruvchilar orasidan tanlovni amalga oshiradi. Ehtimoliy yetkazib beruvchilardan birining savdo bo‘limi rahbari Bank xodimining qarindoshi hisoblanadi. Materiallarni sotib olish aynan mazkur yetkazib beruvchidan amalga oshiriladi.

Tartibga solish usuli: Xodimni qaror qabul qilishdan chetlashtirish.

4-misol: Tashkilot faoliyati to‘g‘risida maxfiy ma‘lumotlarga ega bo‘lgan A tashkilotining xodimi bevosita ish beruvchining raqobatchisi bo‘lgan B tashkilotidan o‘rindoshlik asosidagi ish (ehtimol ish haqi darajasi yuqoriroq bo‘lgan) taklifini oladi.

*Mumkin bo‘lgan tartibga solish usullari:
ish haqini oshirish (tengsiz mutaxassisning yoki qimmatli xodimning);
xodimga boshqa haq to‘lanadigan ishlarni bajarishni rad etishni tavsiya qilish.*

5-misol: A tashkilotining xodimi A tashkilotining sho‘ba korxonasi bo‘lgan B tashkilotida o‘rindoshlik asosida boshqa ishlarni bajaradi. Shu bilan birga, A tashkilotidagi xodimning mehnat vazifalari B tashkilotiga nisbatan nazorat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq.

*Mumkin bo‘lgan tartibga solish usullari:
xodimning lavozim majburiyatlarini o‘zgartirish;
xodimni asosiy, sho‘ba yoki boshqa affillangan tashkilotga nisbatan mehnat vazifalarini bajarishdan chetlashtirish;
xodimga boshqa haq to‘lanadigan ishlarni bajarishni rad etishni tavsiya qilish.*

6-misol: A tashkilotining xodimi A tashkilotining mablag'larini boshqa tashkilotlarning aktivlariga investitsiya qilishga qaror qiladi. Ehtimoliy investitsiya obyekti B tashkiloti bo'lib, uning qimmatli qog'ozlariga mazkur xodim egalik qiladi.

Mumkin bo'lgan tartibga solish usullari:

xodimni tashkilot mablag'larini investitsiya qilish bo'yicha qaror qabul qilishdan chetlashtirish;

xodimning mehnat majburiyatlarini o'zgartirish;

xodimga mavjud qimmatli qog'ozlarni sotish yoki ishonchli boshqaruvga topshirishni tavsiya qilish.

7-misol: A tashkilotining xodimi B tashkiloti oldida kredit majburiyatlariga ega, bunda A tashkiloti xodimining mehnat majburiyatlari esa qarz mablag'larini jalb qilish to'g'risida qaror qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Mumkin bo'lgan tartibga solish usullari:

xodimni Manfaatlar to'qnashuvi mavzusi bo'lgan qaror qabul qilishdan chetlashtirish;

xodimning mehnat majburiyatlarini o'zgartirish;

xodimga moliyaviy yoki mulkiy majburiyatlarni bajarishda yordam berish, masalan, ish beruvchi tashkilot tomonidan qarz berish orqali.

8-misol: A tashkilotining xodimi o'z mehnat vazifalarini bajarish jarayonida unga ma'lum bo'lgan ma'lumotlardan o'zi yoki xodimning shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa shaxs uchun tijorat operatsiyalarini amalga oshirishda foyda yoki raqobatda ustunlikka ega bo'lish uchun foydalanadi.

Mumkin bo'lgan tartibga solish usullari:

xodimlarga o'z mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish yoki shaxsiy maqsadlarda foydalanishni taqiqlovchi korporativ odob-ahloq qoidalarini belgilash.

THE
JANUARY

THE
1950

THE
JANUARY

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat bankida
Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish
va tartibga solish to‘g‘risidagi
Nizomga
2-ILOVA

ARIZA

Men, _____,
mazkur deklaratsiyani to‘ldirishdan oldin “Mikrokreditbank” ATBning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va “Mikrokreditbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va tartibga solish to‘g‘risidagi Nizom bilan tanishib chiqdim.

xodim imzosi



Manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasi

Kimga (Rahbarning FISH va lavozimi)	
Kimdan (deklaratsiyani to‘ldirgan xodimning FISH)	
Lavozimi	
To‘ldirilgan sana	
Deklaratsiya vaqt oralig‘ini o‘z ichiga oladi	

Mazkur manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasi qat’iy maxfiy xususiyatga ega (to‘ldirilgandan keyin) va faqat "Mikrokreditbank" ATBda ichki foydalanish uchun mo‘ljallangan. Manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasining mazmuni hech qanday uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi va ular tomonidan hech qanday maqsadda foydalanilishi mumkin emas.

Manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasini to‘ldirishda, ko‘tarilgan barcha savollar xodimga va uning oila a‘zolariga (turmush o‘rtog‘i, ota-onasi, bolalari, aka-uka va opa-singillari) tegishli ekanligini hisobga olish kerak.

Quyidagi savollarni diqqat bilan tanishib chiqing va har bir savolga “ha” yoki “yo‘q” deb javob berish kerak.

Barcha “ha” javoblari manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya oxirida ajratilgan joyda tushuntirish berilishi kerak.¹

1. Siz (oila a‘zolaringiz) qimmatli qog‘ozlar, aksiyalar (hissalar, tashkilotlarning ustav kapitalidagi ulushlar) yoki boshqa moliyaviy aktivlarga egalik qilasizmi:

1.1 Bank bilan ish munosabatlariga ega bo‘lgan kompaniya yoki tashkilotda (kontragent, pudratchi, maslahatchi va hokazo)?

(Ha / yo‘q)

1.2 Bank bilan ishbilarmonlik aloqalarini o‘rnatishdan manfaatdor yoki imkoniyat qidirayotgan yoki u bilan muzokaralar olib borayotgan kompaniya yoki tashkilotda?

(Ha / yo‘q)

1.3 Bank bilan sud muhokamasida taraf sifatida ishtirok etayotgan yoki ishtirok etmoqchi bo‘lgan kompaniya yoki tashkilotda?

(Ha / yo‘q)

2. Siz yoki Sizning oila a‘zolaringizdan birortasi boshqaruv organlari (Kuzatuv kengashi, boshqaruvi) a‘zolari yoki ijrochi rahbarlari (direktorlar, direktor o‘rinbosarlari va hokazolar), shuningdek xodimlar, maslahatchilar, konsultantlar, agentlar yoki ishonchli shaxslari hisoblanadilarmi:¹

2.1 Bank bilan ishbilarmonlik munosabatlarida bo‘lgan kompaniya yoki tashkilotda?

(Ha / yo‘q)

2.2 Bank bilan ishbilarmonlik aloqalarini o‘rnatishdan manfaatdor yoki imkoniyat qidirayotgan (masalan, davlat shartnomasini tuzish huquqi uchun tender yoki kim oshdi savdosida qatnashayotgan) yoki u bilan muzokaralar olib borayotgan kompaniya yoki tashkilotda?

(Ha / yo‘q)

2.3 Bank bilan sud muhokamasida taraf sifatida ishtirok etayotgan yoki ishtirok etmoqchi bo‘lgan kompaniya yoki tashkilotda?

(Ha / yo‘q)

3. Siz (oila a‘zolaringiz) moliyaviy manfaatdor bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan bank nomidan biron-bir harakatlarni amalga oshirganmisiz (masalan, bajarilgan ishlarni qabul qiluvchi, to‘lov hujjatlarini rasmiylashtiruvchi shaxs sifatida va hokazo)?

(Ha / yo‘q)

4. Siz (oila a‘zolaringiz) ularga nisbatan mehnat vazifalaringizni amalga oshirgan jismoniy (yoki) yoki yuridik shaxslardan mukofotlar (sovg‘alar, pul

¹ “Xa” javobi, albatta, manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini anglatmaydi, lekin u kelgusida ish beruvchi vakili tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan masalani aniqlaydi.

¹ Agar siz ushbu bandedagi savollarning birortasiga “ha” deb javob bersangiz, Deklaratsiyaning yakuniy qismida kim to‘g‘risida (siz yoki oila a‘zolaringizdan biri) so‘z yuritilayotgani ko‘rsatilishi kerak.

¹ Agar siz ushbu bandning birorta savoliga “ha” deb javob bersangiz, Deklaratsiyaning yakuniy qismida kim to‘g‘risida (siz yoki oila a‘zolaringizdan biri) so‘z yuritilayotgani va ushbu shaxs kim ekanligi (boshqaruv organi (Kuzatuv kengashi, Boshqaruvi) a‘zosi yoki ijrochi rahbar (direktor, direktor o‘rinbosari va hokazo) yoki xodim, maslahatchi, konsultant, agent yoki ishonchli shaxs) ko‘rsatilishi kerak.

mablag'lari, ssudalar, xizmatlar, ko'ngilocharliklar, dam olish, transport xarajatlari uchun to'lov va boshqa moddiy boyliklar) olganmisiz?

(Ha / yo'q)

5. Ishingiz davomida Sizga ma'lum bo'lgan yoki lavozim majburiyatlaringizni bajarish jarayonida bank uchun Siz tomonidan ishlab chiqilgan har qanday maxfiy ma'lumotlarni (rejalar, dasturlar, moliyaviy ma'lumotlar va boshqalar) o'z manfaatlaringiz (oila a'zolaringiz manfaatlarini) ko'zlab biron bir shaxs yoki kompaniyaga oshkor qilganmisiz?

(Ha / yo'q)

6. Siz o'z manfaatlaringiz (oila a'zolaringiz manfaatlarini) ko'zlab biron-bir uchinchi jismoniy (yoki) yoki yuridik shaxsga o'zingizning lavozim majburiyatlaringizni bajarishingiz munosabati bilan Sizga ma'lum bo'lgan bank bilan bog'liq biron-bir boshqa ma'lumotlarni oshkor qilganmisiz?

(Ha / yo'q)

7. Siz bankning mablag'lari, vaqti, asbob-uskunalari va boshqa mol-mulkidan (jumladan, aloqa vositalari va Internetga kirish) yoki ma'lumotlardan bank obro'siga putur yetkazadigan yoki bank manfaatlariga zid keladigan tarzda foydalanganmisiz?

(Ha / yo'q)

8. Siz bankdagi mehnat faoliyatingizdan tashqari, bankning ICHKI XUJJATHnat tartibi qoidalarining ish vaqtiga bo'lgan talablariga zid bo'lgan va bank mulki bo'lgan resurslar va ma'lumotlardan uchinchi tomonning manfaati uchun foydalanishga olib keladigan boshqa haq to'lanadigan ishlarni bajarasizmi?

(Ha / yo'q)

9. Sizning oila a'zolaringiz bankda, shu jumladan bevosita rahbarligingiz ostida ishlaydilar²mi?

(Ha / yo'q)

10. Sizning oila a'zolaringizdan birontasi bankda Sizning faoliyatingizni baholashga ta'sir qilish imkonini beradigan lavozimda ishlaydimi²?

(Ha / yo'q)

11. Oila a'zolaringizni bank yoki boshqa davlat muassasasiga ishga qabul qilishda homiylik qildingizmi; yoki ularning ishiga baho berdingizmi, ularni yuqori lavozimga ko'tardingizmi, ishiga baho berdingizmi yoki intizomiy jazodan ozod qilinishiga yordam berdingizmi?

(Ha / yo'q)

12. Yuqorida sanab o'tilmagan, manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan yoki keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan yoki hamkasblar va rahbarlarga Siz manfaatlar to'qnashuvi ta'sirida qaror qabul qilayotgandek taassurot qoldirishi mumkin bo'lgan boshqa holatlardan xabardormisiz?

(Ha / yo'q)

Yuqoridagi savollarning birortasiga "ha" deb javob bergan bo'lsangiz, vaziyatni to'liq ko'rib chiqish va baholash uchun (savol raqamini ko'rsatgan holda) quyida batafsil ma'lumotlarni bayon qilishingizni so'raymiz.

This image shows a single sheet of white paper with horizontal blue or grey ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are approximately 20 lines visible. The paper has a slight shadow on its right side, suggesting it's resting on a surface. There is no handwriting or other markings on the paper.

Men yuqoridagi barcha savollarni o'qib chiqqanimni va tushunganimni hamda javoblarim va har qanday tushuntirish ma'lumotlarim to'liq, ishonchli va to'g'ri ekanligini tasdiqlayman.

Imzo:

FISH:

Deklaratsiyani to'ldirgan xodim rahbarining qaroriⁱⁱ

Qaror	Imzo
Manfaatlar to'qnashuvi aniqlanmadi	
Men deklaratsiya qilgan xodimning fikriga ko'ra, bank manfaatlariga zid keladigan yoki zid kelishi mumkin bo'lgan vaziyatni manfaatlar to'qnashuvi deb hisoblamayman	
Men xodimning shaxsiy manfaatlariga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan bank ma'lumotlarini olishni cheklab qo'ydim (qanday ma'lumot ekanligi ko'rsatilsin)	
Men xodimni (doimiy yoki vaqtincha) manfaatlar to'qnashuvi ta'siri ostidagi yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishdan chetlashtirdim (qaysi masalalar ekanligi ko'rsatilsin)	
Men xodimning majburiyatlari va mehnat vazifalarini qayta ko'rib chiqdim (qaysi majburiyat va vazifalar ekanligi ko'rsatilsin)	
Men xodimni uning xizmat vazifalari va shaxsiy manfaatlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan lavozimidan vaqtincha chetlashtirish masalasini ko'tardim	
Men xodimni manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan xizmat vazifalarini bajarishni ta'minlaydigan boshqa lavozimga o'tkazish masalasini ko'tardim	
Men deklaratsiyani manfaatlar to'qnashuvini ko'rib chiqish va tartibga solishning eng yaxshi usulini aniqlash uchun yuqori turuvchi rahbarga topshirdim, chunki	
(tushuntirish bering)	

Rahbar

FISH

imzo

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat bankida
Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish
va tartibga solish to‘g‘risidagi
Nizomga
3-ILOVA

**Manfaatlar to‘qnashuvining kelib chiqishi yoki yuzaga kelgan manfaatla
to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma**

Men,

,

(FISH, lavozimi, bo‘linma nomi)

shuni ma’lum qilamanki

1. _____
*(manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan
shaxsiy manfaatning ta’rifi)*

2. _____
*(bajarilishiga Bank xodimining shaxsiy manfaatlari salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin
bo‘lgan yoki salbiy ta’sir ko’rsatayotgan lavozim majburiyatlarining tavsifi)*

3. _____
(Bank xodimi ko’rsatilishi zarur deb hisoblagan qo’shimcha ma’lumotlar)

(FISH)

(sana)

(imzo)



“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat bankida
Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish
va tartibga solish to‘g‘risidagi
Nizomga
4-ILOVA

**Barcha xodimlar tomonidan oshkor
etilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar**

1. Qonun chiqaruvchi (vakillik) organi yoki mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organi deputatligiga nomzod sifatida ko‘rsatish to‘g‘risida;
2. Bank xodimlari (shu jumladan, yaqin qarindoshlari) tomonidan bankdan tashqari faoliyatni amalga oshirish, shu jumladan uchinchi shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish (aksiyalari fond birjasida va tashkil etilgan birjadan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozorida sotiladigan tashkilotlar bundan mustasno, agar bunday ishtirok ustav kapitalining bir foizidan oshmasa) va uchinchi shaxslarning boshqaruv organlarida, agar mazkur tashkilotlar bankning raqobatchilari, Mijozlari (yoki)yoki kontragentlari bo‘lsa, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va o‘rindoshlik asosidagi ishlash;
3. Xodimlarga uchinchi shaxslarning boshqaruv organlarida (yoki)yoki ustav kapitalida ishtirok etish (aksiyalari fond birjasida va tashkil etilgan birjadan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozorida sotiladigan tashkilotlar bundan mustasno, agar bunday ishtirok ustav kapitalining bir foizidan oshmasa) yoki o‘rindoshlik asosidagi ish haqida takliflar olinganligi to‘g‘risidagi xabarlar;
4. Bankdagi yaqin qarindoshlarning birgalikdagi faoliyati, shu jumladan yaqin qarindoshlarning biznes jarayonlarida (yoki)yoki boshqaruv organlarida birgalikda ishtirok etishi;
5. Bank xodimi (yoki)yoki uning yaqin qarindoshlarining lavozimi (yoki)yoki lavozim majburiyatlarining o‘zgargani to‘g‘risida;
6. Manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlar haqida.

ⁱⁱ Deklaratsiyaning barcha savollarga “yo‘q” deb javob berilgan taqdirda, rahbarning ushbu qarori to‘ldirilmaydi.